

SECTION IV
METHODOLOGY OF LINGUISTIC RESEARCH AND TRANSLATION ART

SOHAVIY TARJIMONLAR TAYYORLASHNING DOLZARB MASALALARI

I. Tuxtasinov¹

Annotatsiya:

Mazkur maqola tarjimon tayyorlash, xususan sohaviy tarjimon tayyorlashning bugungi kunda dolzarbligi, sohaviy tarjimon tayyorlashning metodik tartibi, jarayonda yuzaga keladigan muammolar va ularning samarali yechimlariga bag'ishlanadi. Shuningdek, maqolada talabalarga tarjimoni o'qitishni tashkil etish masalasi ham beyond etilgan.

Kalit so'zlar: tarjima, tarjimon, soha tarjimoni, ta'lim, o'rgatish, o'qitish, termin, terminologiya, asliyat tili, tarjima tili, kompetensiya.

doi: <https://doi.org/10.2024/p1qreq33>

Har qanday mamlakatning taraqqiyoti davlat va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini rivojlanishi va takomillashishiga bog'liq. Davlatning xalqaro darajada integratsiyalashuvi birinchi navbatda xalqaro xamkorlikning kengayishiga sabab bo'ladi. Bu jarayonda davlatlararo va xalqlararo muloqotni samarali tashkil etishda professional tarjimonlarga ehtiyoj ortib boradi.

Keyingi yillarda yurtimizda ta'lim sifatini yanada oshirish, kadrlar malakasini yuksaltirish borasida bir qator islohotlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida" 2017 yil 13-sentabrda PQ-3271-son qarori, "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son qarori, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 18 maydagi "Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga hamda o'zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 376-son qarorlari xalqimiz, avvalo, yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, joylarga, ta'lim muassasalariga vaqtida va maqbul narxlarda yetkazish, milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, farzandlarimizda bolalikdan boshlab kitob, jumladan, elektron kitob o'qish ko'nikmasini shakllantirish, jamiyatimizda mutolaa madaniyatini yuksaltirish bilan bog'liq muhim masalalarni hal etish, shuningdek, davlat tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan davlat tiliga professional tarjima qilish uslullarini yaratish hamda ushbu yo'nalishda mutaxassislarning malakasini oshirishda ko'maklashish masalalari dolzarb masala qilib belgilab qo'yilgan. Bu esa tarjimon tayyorlashning barcha bosqich va ko'rinishlarida tub o'zgarishlarni amalga oshirish talab etiladi.

Bugungi kunda jahon tarjimon tayyorlash tizimida umumiylikdan xususiylikka tamoyili keng tadbiriq etilmoqda. Dunyoning ilg'or tarjima markazlarida sohaga innovation

¹ Tuxtasinov Ilhomjon Madaminovich, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, pedagogika fanlari doktori

texnologiyalarni keng jalb qilish bilan birgalikda soha tarjimonlarini tayyorlash masalasiga ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Jahonning tarjimon tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari va tarjimon markazlarida sohaviy tarjimonlar tayyorlash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarining salmog'i ortib bormoqda. Shunday ekan, biz ham bugun kunda Respublikamizda tarjimon tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarimizning o'quv dasturlari kontentiga sohaviy tarjimonlar tayyorlash jarayonini singdirishni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Tarjimaga o'qitishni tashkil etish va uni o'qitish usullarini ishlab chiqish bir qator asl farazlar qabul qilinishi bilan shartlanadi:

- tarjima aqliy faoliyatning murakkab va ko'p qirrali turi bo'lib, u turli maqsadlarni ko'zlashi, har xil sharoitlarda, turli yo'llar bilan va ko'plab unsurlar ta'sirida amalga oshirilishi mumkin;

- har qanday faoliyat singari tarjimaning ham amalga oshishi uchun o'qitish jarayonida hosil qilinishi lozim bo'lgan muayyan bilim, mahorat (ma'lum bir harakatni ongli ravishda bajarish) va ko'nikma (ma'lum bir harakatni yarim ixtiyoriy va beixtiyor (avtomatik) ravishda bajarish) talab etiladi;

- tarjimonlik faoliyati tarjimon tomonidan ongli ravishda (tahlil va asoslangan xulosalar yordamida) yoki intuitiv ravishda amalga oshirilishi mumkin. Faoliyatning ongli va intuitiv ko'rinishlari orasidagi nisbat har xil tarjimonlarda har xil matnlarni turli sharoitlarda o'girish asnosida turlicha bo'ladi. Ongli va intuitiv o'girish qobiliyati (tarjimonlik vakolati) o'qitish va amaliyot jarayonida rivojlanib boradi;

- tarjimonlik vakolatining amalga oshishi tarjimonning til bilan bog'liq shaxsiy ishtirokida ro'y beradi. Buning uchun tarjimonda har tomonlama kognitiv va lingvistik bilim, keng ko'lamlı umummadaniy zukkolik, zarur ruhiy sifatlar va iste'dod bo'lishi lozim. Bunday sifatlar tarjimaga o'qitish davomida rivojlanib va rag'batlantirilib borishi kerak;

- tarjimaga o'qitish vazifasi tarjimon har qanday vaziyatda beixtiyor qo'llay olishi mumkin bo'lgan qandaydir me'yor, qoida va reseptlarni o'zlashtirish emas, balki tarjima qoidalari, uslub va usullarini egallash, ularni tanlay bilish, muayyan sharoitlarda turli matnlarga nisbatan, turli maqsadlarda turlicha qo'llay olishdadir. O'girish jarayonida tarjimon tomonidan hal etiladigan masalalar barchaga ma'lum usul va qoidalarni qo'llash imkonini beruvchi bir qolipdagi yoki tarjimonlik strategiyasining umumiy qoidalari asosida matnda yashiringan ma'no va tegishli vaziyatning o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda yangicha yechim topishni talab etadigan darajada individual bo'lishi mumkin. Yechim qidirish ma'lum qoida va usuldan foydalanish imkoniyati haqidagi, uning o'zgaradigan yoki odatiy, qolipli yechimidan voz kechib, noyob, okkazional yechimni tanlash zarurati haqidagi xulosalardan iborat bo'ladi;

- tarjimonlik faoliyati ob'yekti asl matndagi axborot hisoblanadi. Matn (xabar) mundarijasi semantik va shakliy qismlari bir-biri bilan bog'liq. Biroq uzviylik turlicha ahamiyat kasb etuvchi tugallangan bir butun ko'rinishda namoyon bo'ladi. Butun va uning bo'laklari orasidagi bog'liqlik tarjima jarayonida turlicha namoyon bo'ladi. Matnning alohida unsurlarini o'girishda muhimligiga qarab nisbatan aniq va to'laqonli ifoda yuzaga kelishi mumkin. Shu ma'noda bir butun alohida qismlariga nisbatan ahamiyatliroq bo'lishi (bo'lmasligi ham) mumkin;

- matnni tashkil etuvchi til birliklari o'z-o'zicha tarjima ob'yekti bo'la olmaydi, ammo matn mundarijasi, matnda ma'lum bir til vositalarining uchrashi ular orqali yuzaga keladi, semantik ahamiyatga ega bo'ladi, tarjima vazifasining xarakterini aniqlay olishi va tarjima uchun ma'lum bir qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Shu ma'noda til birliklari ahamiyatini tarjima jarayonida matnning ulkan mundarijasidagi bir bo'lak sifatida ifodalash muammosi mavjud bo'ladi;

- ko'rsatilgan nisbat tarjimaga o'qitishda foydalaniladigan o'quv tarjimani professional tarjimonning ish sharoitlariga yaqinlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, o'quv maqsadlarda ma'lum bir qolipdagi tarjima qiyinchiliklari va masalalarini, iloji boricha, kichik

qismda ajratib ko'rsatish imkonini beradigan matnning ayrim bo'laklaridan, ba'zi ifodalardan foydalanish mumkin;

- tarjimaga o'qitish jarayonida foydalanilayotgan o'quv materiali (matn, ifoda, so'z)ni o'g'irish usullari emas, balki tipik tarjima masalalarini yechish usullari va individual ijodiy yechimlar qidirish strategiyasi o'rganishi lozim.

Har qanday o'quv yo'nalishi mundariyasi, o'rganilayotgan predmetning o'ziga xos xususiyatlari o'qitishning pirovard maqsadi bilan belgilanadi. Tarjimonlik faoliyati qonun-qoidalarini tarjimonlar tayyorlash dasturi asoslariga kiritilgan tarjima nazariyasi o'rganadi.

Bu borada ta'lim jarayonida quyidagi tadbirlarni amalga oshirishsak sohaviy tarjimonlar tayyorlash yanada takomillashadi degan fikrdamiz:

- ta'lim jarayoniga oid me'yoriy xujjatlar, xususan, davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv dasturlari kontentiga sohaviy tarjimon tayyorlash jarayonini singdirish;

- tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi bo'yicha o'quv dasturlari va syllabuslariga quyidagilarda umumiylik, yuqori kurslarida esa ixtisoslik tamoyilini tadbiriq qilish;

- ta'lim jarayonining dastlabki 1-4 - semesterlarida umumiy tarjima nazariyasi va amaliyoti, ya'ni yozma va og'zaki tarjimaning umumiy qoida va tamoyillarini o'rgatish;

- ta'lim jarayonining keyingi 5-8 - semesterlarida sohaviy tarjima nazariyasi va amaliyoti bo'yicha dars mashg'ulotlarini olib borish. Bunda talabalar 5-semester boshida talabalar guruhlarida bugungi kunda davlat va jamiyatning eng ilg'or sohalarida, jumladan, iqtisodiyot, san'at, sport, neft-gaz, xuquqshunoslik sohalarida taqsimlanadi va talabalarda mutaxassislik fanlarida kontentiga belgilangan sohaviy tarjima nazariyasi va amaliyoti bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiriladi.

- ta'limning ayni shu bosqichida o'rganilayotgan xorijiy til, maxsus maqsadlar uchun xorijiy til fanlari, jumladan, "English for Economics", "English for Art", "English for Sport", "English for Justice" ga o'zgartiriladi.

Sohaviy tarjimon tayyorlashning kontentida bo'lajak tarjimonlarda takomillashishi lozim bo'lgan bir necha kasbiy kompetensiyalar mavjud bo'lib, ular orasida tematik hamda terminologik kompetensiya eng muhimlari xisoblanadi. Chunki soha terminologiyasi va uning asliyat va tarjima tillarida muqobillari, ifodasini qanchalik yaxshi bilishi, tarjima jarayonida duch keladigan leksik muammolarni bartaraf etishga yordam beradi.

Mantiqiy yondashuv nuqtai nazaridan terminologiyaning ko'plab masalalari birinchi navbatda termin va tushuncha o'rtasidagi munosabat masalasini o'rganishdan boshlanadi. Bo'lajak tarjimon termin va anglatadigan tushunchani anchalik tog'ri anglashi va unda bu borada yetarli bilim, ko'nikma va malakani shakllanishi kelgusi faoliyatida lingvistik, tematik va xatto psixi-fiziologik muammolarga duch kelishini oldini oladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kunda mamalakatimiz dunyo hamjamiyati bilan xar tomonlama xamkorlik masalalarini kengaytirayotgan bir davrda xalqaro xamkorlik jarayonini yangi bosqichga olib chiqishda tarjimonlar, xususan, sohaviy tarjimonlarni roli muhim deb xisoblaymiz. Tarjimon tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida esa sohaviy tarjimon tayyorlashni bosqichma-bosqich amalga oshirish kelgusida mamlakatimizga professional tarjimonlar tayyorlashga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Данилова И.И. Обучение переводу лингвокультурологических грамматически трудных явлений: Английский язык Текст.: дис. канд. пед. наук: 13.00.02 / И.И. Данилова. Таганрог, 2004. - 206 с.

[2]. Христолюбова А.А. Методика обучения студентов переводческих факультетов письменному переводу текстов экономической тематики. Диссертация ... кандидата педагогических наук. Нижний Новгород, 2013.